

BUVAYDA TUMANI SHEVASIGA OID SO‘ZLARNING YASALISHI

Mo‘sojonova Durdonaxon Bahodirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Rahmatillo Shukurov

Filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buvayda tumani shevalariga xos so‘zlarning yasalishi tahlil qilingan.

Kalit sozlar: Morfologik usul, leksik usul, yasalish usullari, kompazitsion usul yasama so‘zlar.

O‘zbek xalq shevalarida so‘z yasalishi bu mavzu o‘zbek shevalariga bag‘ishlangan har bir dialektologik ishda ma’lum ma’noda o‘z ifodasini topgan. Sh.Shoabdurahmonov, X.Doniyorov, F.Abdullahov, A.Aliyev, B.Jo‘rayev, Yu.Jumanazarov, N.Rajabov, K.Sharipova cingari dialektologlarning ishlarida qisqa bo‘lsa ham berilgan. Ot, sifat, fe'l va ravishlarda ko‘proq so‘z yasalishini kuzatish mumkin. Bu sohada affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan so‘z yasalishini kuzatish mumkin. O‘zbek adabiy tilida bo‘lganidek, shevalarda ham so‘z yasashning affiksatsiya usuli bilan ancha unumli so‘z yasash usulidir. Albatta so‘z yasalishi hodisasi shevalarimizning ham boyish manbalari sanaladi.

Buvayda tumani shevalarining barcha so'zlarini yasalishini va u so‘zlerning etimologiyasini topishga, ularni izohlashga harakat qildim.

Yem+ go'sh { shevada "t" tovushi tushib qolgan bo‘lsa kerak deb o'ylayman } ot+ot= sifat so‘z turkumi hosil bo'lyapti.

Kompazitsion usul

Ota+ qari = otaqari bu so‘zda ham ot+ot = sifat yasalyapti.

Kompazitsion

Ena+ qari = enaqari bu so‘zdan ham xuddi shunday shaklda ot+ ot = sifat yasalyapti

Kompazitsion usul

Jo’ra+ qi = jo’raqi {javra+qi=javraqi} so‘zining shevadagi varianti bo‘lsa kerak deb o'ylayman. Bunda fe'l + -qi = sifat

Morfologik usul

Hovdir+ak = hovdirak so‘zi hosil bo'lyapti. Bunda sifat + -ak= sifat.

Morfologik usul

Zoq+ an = zoqan {bu so‘z asli zog’ so‘zidan yasalgan bo‘lsa kerak} bu yerda ot+ -an = sifat

Morfologik usul

Qari+ zot= qarizot ot+ ot= sifat yasalyapti.

Kompazitsion usul

Bidir-bidir +iq = bidiriq bunda taqlid so'zdan sifat yasalyapti. Taqlid so'z +-iq= sifat

Morfologik usul

Tum+ ti= tumti bu so'z tum ya'ni tumtaymoq so'zidan kelib chiqqan bo'lsa kerak deb o'layman. Natijada sifat so'z turkumi hosil bo'lyapti.

Morfologik usul

Xobbon+ i= xobboni bunda ot+-i= sifat yasalyapti

Morfologik usul

Ili+ miliq = ilimiliq bunda "ilimoq" fe'lidan ilimiliq sifat so'z turkumi hosil bo'lyapti.

Morfologik usul

Bo'sh+ang = bo'shang bunda bo'sh sifat so'z turkumidan qo'shimcha qo'shish orqali yana sifat so'z turkumi hosil bo'lyapti sifat+-ang= sifat

Morfologik usul

Sekin+-chi = sekinchı bunda ravish so'z turkumidan qo'shimcha qo'shish orqali sifat so'z turkumi hosil bo'lyapti ravish+-chi= sifat

Morfologik usul

Prasan+chi= prasanchi bunda ot so'z turkumidan qo'shimcha qo'shish orqali sifat so'z turkumi hosil bo'lyapti. Ot+-chi= sifat

Morfologik usul

Bad+ qovoq= badqovoq bunda" bad " old qo'shimchasi orqali ot soz turkumidan sifat so'z turkumi hosil bo'lyapti bad+ot= sifat

Morfologik usul

Ot+ ar = otar bunda fe'l so'z turkumidan qo'shimcha qo'shish orqali sifat so'z turkumi hosil bo'lyapti. Fe'l+-ar= sifat

Morfologik usul

Bostir+ ma= bostirma bunda bostirmoq fe'lidan qo'shimcha qo'shish orqali ot so'z turkumi hosil bo'lyapti. Fe'l +-ma= ot

Morfologik usul

Og'il+ xona = og'ilxona bunda ot so'z turkumidan qo'shimcha qo'shish orqali yana ot so'z turkumi hosil bo'lyapti. Ot+ xona= ot

Morfologik usul

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-SENTABR 2024

Ba-ba taqlid soʻzidan baba ya'ni qoʻshtida unga esa - choq (chaq) erkalash- kichraytirish qoʼshimchani qoʼshish orqali ot soʼz turkumi hosil boʼlyapti.

Morfologik usul

Besh+lig‘ (-lik qoʼshimchasining shevadagi varianti boʼlsa kerak) = beshlig bunda son+ lig‘ = ot

Morfologik usul

Shoʻra+ xamtak= shoʼraxam tak bunda ot+ ot= ot

Kompazitsion usul

Gʼoʼra +xamtak = gʼoʼraxam tak bunda ot +ot=ot

Kompazitsion usul

Boʼz +turpoq = boʼz turpoq bunda sifat+ ot= sifat soʼz turkumi hosil boʼlyapti.

Kompazitsion usul

Xamir +pesh = xamir pesh bunda ot+ot = ot soʼz turkumi hosil boʼlyapti.

Kompazitsion usul

Taxta+ gach (- kach qoʼshimchasining shevadagi varianti boʼlsa kerak)= taxtagach ot soʼz turkumi hosil boʼlyapti.

Morfologik usul

Oq+choy= oqchoy bunda sifat + ot = sifat soʼz turkumi hosil boʼlyapti.

Kompazitsion usul

Koʼrpa + beti= koʼrpabeti bunda ot+ot= ot soʼz turkumi hosil boʼlyapti

Kompazitsion usul

Katta+ dada = kattadada bunda sifat + ot = ot soʼz turkumi hosil boʼlyapti.

Kompazitsion usul

Opogʼ+ dada= opogʼdada bunda sifat +ot = ot soʼz turkumi hosil boʼlyapti.

Kompazitsion usul

Ola+xona = olaxona [hojatxona] bunda sifat+ot= ot soʼz turkumi hosil boʼlyapti.

Kompazitsion usul

Sep+ -lamoq= seplamoq bunda ot+ -la soʼz yashovchi qoʼshimcha qoʼshish orqali feʼl soʼz turkumi hosil boʼlyapti.

Morfologik usul

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-SENTABR 2024

Qir+ - moch= qirmoch bunda fe'l + -moch so'z yashovchi qo'shimcha qo'shish orqali ot so'z turkumi hosil bo'lyapti.

Morfologik usul

Bola+xona= bolaxona bunda ot+ot =ot so'z turkumi hosil bo'lyapti.

Kompazitsion usul

Poy + devol= poydevor bunda ot+ot= ot so'z turkumi hosil bo'lyapti.

Kompazitsion usul

Bo'z+ turpoq = bo'zturpoq bunda ot +ot= sifat so'z turkumi hosil bo'lyapti.

Kompazitsion usul

Qo'r+ -a = qo'ra bunda ot + -a = ot so'z turkumi hosil bo'lyapti.

Morfologik usul

Pis+ -miq= pismiq bunda fe'l + -miq so'z yashovchi qo'shimcha qo'shish orqali sifat so'z turkumi hosil bo'lyapti.

Morfologik usul

Sur+guruch= surguruch bunda sifat+ot= ot so'z turkumi hosil bo'lyapti.

Kompazitsion usul

Non+taxta = nontaxta bunda ot +ot = ot so'z turkumi hosil bo'lyapti.

Kompazitsion usul

Tandir +xona = tandirxona bunda ot +ot = ot so'z turkumi hosil bo'lyapti.

Kompazitsion usul

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shevadagi barcha so'zlarning yo'qolib ketmasligi uchun biz ularni yosh avlodga yetkazish uchun barchasini qisqacha lug'atlarini tuzib, izohlarni keltirib, adabiy tildagi variantlarini topib ularni yosh avlodga yetkazishimiz zarur. Shevalardagi so'zlar ham o'zbek adabiy tilining lug'atini boyitishda asosiy manba bo'lib xizmat qilishiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak deb o'yayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Reshetov V. V, Shoabdurahmonov.Sh . O'zbek dialektologiyasi, Toshkent, O'qituvchi,1978- yil
- 2.Mirzayev M .M , O'zbek tilining Buxoro guruh shevalari ,Toshkent, 1969 -yil.
- 3.Ashirboyev .S, O'zbek dialektologiyasi Toshkent, 2000 -y / maruza matni/
- 4.Rajabov .N . O'zbek shevashunosligi Toshkent, Oqituvchi 1996-yil.
- 5.Murodova .N. O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini,Toshkent , Fan2007 yil

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-SENTABR 2024

- 6.Doniyorov. X .Qipchoq dialektlarining leksikasi, Toshkent, Fan, 1997- yil.
- 7.Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла
Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
8. Ўзбек диалектологиясидан материаллар.1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- 9.Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- 10.Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.